

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhammadov, A.U.G'ofurov Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining sport turizmiga doir bilimlarini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik mazmuni	9
B.Sh.Shermuhammadov, D.R.Murodova Fanlararo integratsiya asosida bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik modeli	16
N.M.O'rinova Xorijiy ta'limda tyutorlik faoliyatining mohiyati va funksiyalari	20
B.X.Baydjanov, M.R.Maxkamov Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy muloqot qilish qobiliyatlarini shakllantirish	24
B.A.Umarov Raqamli texnologiyalar vositasida pedagoglarning professional kompetentligini rivojlantirish tamoyillari	28
I.M.Saidov Vatanparvarlik va yuksak ma'naviy tarbiya - uchinchi renessans poydevorining omili	33
M.I.Alimjonova Ta'limning globallashuvi sharoitida talabalarda madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mazmuni.....	37
I.I.Yo'lbarsova Talabalarda bioetik madaniyatni rivojlantirishning ijtimoiy-tarixiy an'analari hamda zamonaviy yondashuvlari.....	45
M.I.Alimjonova Talabalarni madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirishning pedagogik modeli.....	49
F.A.Ibroximov, B.M.Jo'raqo'ziyev Mafkuraviy immunitet va uning zarurati	56
Z.J.Pardaeva Mustaqillik davri o'zbek romanchiligi: badiiy va ilmiy tafakkur masalalari.....	60
F.A.Ibroximov Huquqiy fanlarni o'qitilishidagi uzviylik va uzluksizlikning mavjud holati.....	70
L.D.Tuganova Gender va ta'limda tenglik muammosi.....	75
Sh.X.Tog'aeV Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish samaradorligini oshirishning ilmiy-uslubiy masalalari	78
A.R.Saydullayeva Talabalarda gender madaniyatini rivojlantirishning tuzilishi va tarkibiy qismlari	83
G.S.Raxmonova Nostandart tafakkur tarzini rivojlantirishda mustaqil ishlarning pedagogik imkoniyatlari.....	87
M.R.Usmanov O'tish davri yoshidagi ruhiy o'zgarishlarning rivojlanish xususiyatlari.....	93
X.Y.Jo'rayeva, M.T.Turkistonova Oliy ta'lim muassasalarida biologiya fanlarini o'qitishning nazariy asoslari	97
E.S.Yuldashyev Bo'lg'usi o'qituvchilarda suggestiv qobiliyatlarni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari	101
G.B.Karimova Jismoniy tarbiya fanning interfaol ta'lim usullari va ularni innovatsion faoliyatini shakllantirish	107
F.O'.Toshboltayev Zamonaviy ta'limda pedagogik imkoniyatlar va axborot texnologiyalari integratsiyasini ta'minlash	111
S.D.Akzamov Jismoniy tarbiya fani bo'yicha sinfdan tashqari ishlarni bolalar va o'smirlar organizmiga ta'siri	115

ZAMONAVIY TA'LIMDA PEDAGOGIK IMKONIYATLAR VA AXBOROT TEKNOLOGIYALARI INTEGRATSIYASINI TA'MINLASH

ОБЕСПЕЧЕНИЕ ИНТЕГРАЦИИ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ

PEDAGOGICAL FACILITIES AND INFORMATIONAL TECHNOLOGIES INTEGRATION PROVISION IN CONTEMPORARY EDUCATION

Toshboltayev Faxriddin O'rinboevich¹

¹Toshboltayev Faxriddin O'rinboevich

– Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada pedagogik va axborot texnologiyalarini integratsiya qilish bilimlarni o'zlashtirishning hamma jihatlari qamrab oluvchi muammoni tahlil qilish va rejalashtirish, muammoning yechimini baholash faoliyatni tashkil qilish metodlarini o'z tarkibiga oladigan kompleks integrativ jarayon va bo'lajak o'qituvchilarni metodik tayyorgarligini oshirishda pedagogik va axborot texnologiyalari integratsiyasini ta'minlash va bu orqali salohiyatli pedagogni tarbiyalashning mazmuni, qonunchilik asoslari va mavjud xolatlarini tadqiq etilgan.

Аннотация

В данной статье интеграция педагогических и информационных технологий представляет собой сложный интегративный процесс, включающий в себя анализ и планирование проблемы, охватывающий все аспекты приобретения знаний, оценку решения проблемы, методы организации деятельности, интеграции педагогических и информационных технологий в совершенствовании методической подготовки будущих учителей, а через это, потенциального педагога изучены содержание образования, правовые основы и существующие условия.

Abstract

In this article, the integration of pedagogical and information technologies is a complex integrative process that includes the analysis and planning of the problem that covers all aspects of knowledge acquisition, the evaluation of the solution to the problem, the methods of organizing activities, and the integration of pedagogical and information technologies in improving the methodological preparation of future teachers, and through this, a potential pedagogue the content of upbringing, legal bases and existing conditions were studied.

Kalit so'zlar: pedagog, integratsiya, axborot, axborot texnologiyalari, metod, pedagogik mahorat, qonunchilik asoslari.

Ключевые слова: педагог, интеграция, информация, информационные технологии, метод, педагогическое мастерство, правовая основа.

Key words: pedagogue, integration, information, information technology, method, pedagogical skill, legal basis.

KIRISH

Bugungi kunda “yangi davlat ta’lim standartlari”ning joriy etilishi yana bir bor o’qituvchiga kasbiy faoliyatni sezilarli o’zgartiruvchi va yangi mazmun bilan to’ldiruvchi talablarni qo’ymoqda. Chunki mazkur standartlar kompetentli-faoliyatli yondashuvga asoslangan bo’lib, ular ajdodlaridan bilim, ko’nikma va malakalarni shakllantirish emas, balki uzluksiz ta’lim olish, ehtiyojlari va qobiliyatlarini rivojlantirishga layoqatli shaxsni tarkib toptirishga yo’naltirilganligi bilan farq qiladi. Shunday ekan, o’qituvchi kasbiy mas’uliyatining oshishi va jamiyatdagi rolining o’zgarishi ularni ta’lim jarayonidagi jadal o’zgarishlarga tez moslashish, o’ta faollik, doimiy o’zini rivojlantirish va mustaqil bilim olishga tayyor bo’lish, o’qitishning zamonaviy yondashuvlari va texnologiyalaridan boxabar bo’lish hamda ularni samarali qo’llay olish sifatlariga ega bo’lishlarini taqozo qiladi[1]. Shunday ekan, bo’ljak o’qituvchilarni metodik tayyorgarligini oshirishda ularning pedagogik va axborot texnologiyalariga asoslangan kompetentligi integratsiyasini ta’minlash dolzarb vazifalardan biridir. Bo’ljak o’qituvchilarni metodik tayyorgarligini rivojlantirishda integrativ yondashuvni qo’llash va unda axborotlarni qayta ishlash texnologiyasidan foydalanish pedagogik soha bo’yicha o’ziga xos innovatsion yondashuv bo’lib, uning yordamida tadqiqot jarayonida ijobiy sifat o’zgarishi va yuqori samaradorlikka erishiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Zamonaviy ta’limda pedagogik imkoniyatlar va axborot texnologiyalari integratsiyasini ta’minlash masalalarining qo’yilishi M.Tillashaxova, O.Abduquddusov, D.I.Yusupova, I.Y.Raxmonov,

B.Boltayev, O.Y.Kovalenko, N.Kayumova, U.N.Taylaqov, R.G'.Safarova, va B.X.Raximov kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Shuningdek, muammoga oid ma'lumot va nazariyalarni amerikalik tadqiqotchilar K.Zeyxner (Zeichner) va S.Rey (Wray)lar axborot texnologiyalari integratsiyasini ta'minlashni talqin etganlar.

Jahon pedagog-psixologlarining fikricha, bilimlarning boshqarishning mumkin bo'lgan yo'li - o'zlashtirish jarayonini berilgan topshiriqning o'zlashtirish jarayoni sifatida maxsus tashkil etishdir. Bu sohada yaxshiroq ishlangan tizim P.Y.Galperinning aqliy harakatlarni bosqich(bosqichma-bosqich) bo'yicha tarkib toptirish nazariyasiga asoslangan ta'lim tizimidir. Bu nazariyaga muvofiq odamning ontogenetik rivojlanishidagi harakatlar interiorizatsiyasi degan jarayonlar, ya'ni tashqi harakatlarning asta-sekin ichki aqliy harakatlarga aylanish jarayonlari ro'y beradi. Dastavval o'quvchilar tashqi moddiy harakat bilan ish ko'radi "faqat shundan keyingina harakatning integratsiyasi, ya'ni uning ichki harakatga, endi butunlay bolaning aqlida voqea bo'ladigan harakatga aylanishi ro'y beradi",- deb yozadi A.N.Leontyev[2].

TAHLIL VA NATIJALAR

Ta'limda axborot texnologiyalarining qo'llanilish jarayonida texnik vositalar bilan bir qatorda maxsus dasturiy vositalardan ham foydalaniladi. "O'quv jarayoniga yo'naltirilgan dasturiy vosita – bu biror fan sohasini o'rganishda o'z aksini topgan dasturiy vosita bo'lib, bunda shu fan sohasini o'rganish texnologiyasi va u bilan bog'lik har xil o'quv faoliyatlarini amalga oshirish shartlari ta'minlanadi. Har xil turdagi o'quv jarayonlarini bunday funksional ta'minlovchi dasturiy vositalar pedagogik dasturiy vositalar deb ataladi. Hozirgi kunda pedagogik dasturiy vositalarning har xil turlari va guruhlari mavjud. Uslubiy vazifasiga qarab pedagogik dasturiy vositalar quyidagilardan iborat: kompyuter darsliklari (darslari); mashq qilish (repetitor) dasturlari; nazorat qiluvchi dasturlar (test qobiqlari); axborot-spravochnik (ensiklopediya) dasturlar; imitatsion dasturlar; modellashtiruvchi dasturlar; namoyish qiluvchi dasturlar (slaydlar, videofilmlar); o'quv-o'yin dasturlari; bo'sh vaqtlarni mazmunli o'tkazishga yo'naltirilgan dasturlar (kompyuter o'yinlari: quvnoq o'yinlar, strategik o'yinlar, boshqariluvchi o'yinlar, mantiqiy o'yinlar, sport o'yinlari va hokazo)"[3].

Pedagogik va axborot texnologiyalari integratsiyasida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning metodik tizimi maqsadidan kelib chiqib, "sifatli pedagog tayyorlashning asosiy yo'nalishlaridan biri mutaxassislik fanlari laboratoriyalari darslarida bevosita pedagogik faoliyatni tashkil etish: dars ishlanmalari, darsning texnologik xaritalarini ishlab chiqib, o'z guruhdoshlariga darslar o'tib berish, tahlil qilish orqali talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash tayyorlashdir"[4]. Demak, raqobatbardosh kadr, zamonaviy pedagog shaxsiyatini tarbiyalash uchun ham metodik tayyorgarlik tizimini takomillashtirish kerak bo'ladi.

Ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat olib borishga tayyor bo'lishi, "turli darajadagi o'quv dasturlari va darsliklardan foydalanib informatika va axborot texnologiyalari fanidan o'qitishni tashkil qilishi, metodik tizim, uni tashkil etuvchi elementlarni bilishi kerak. Pedagogik va axborot texnologiyalari integratsiyasida o'qituvchining metodik tizimini ishlab chiqish uchun mutaxassislikning har bir darsi davomida o'qituvchi tomonidan talabalar ongida metodik tizim, uni tashkil etuvchi elementlari shakllantirilib borilsa, talabada metodik tizimni yaratishga refleksiv yondashuv hosil bo'ladi"[5].

Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik va axborot texnologiyalari integratsiyasi asosida metodik tayyorgarligini oshirishda hukumatning axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini hisobga olish ham maqsadga muvofiq. Unga ko'ra:

- har kimning axborotni erkin olish va tarqatishga doir konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish, axborot resurslaridan erkin foydalanishini ta'minlash;
- davlat organlarining axborot tizimlari, tarmoq va hududiy axborot tizimlari, shuningdek yuridik hamda jismoniy shaxslarning axborot tizimlari asosida O'zbekiston Respublikasining yagona axborot makonini yaratish;
- xalqaro axborot tarmoqlari va internet jahon axborot tarmog'idan erkin foydalanish uchun sharoit yaratish;
- davlat axborot resurslarini shakllantirish, axborot tizimlarini yaratish hamda rivojlantirish, ularning bir-biriga mosligini va o'zaro aloqada ishlashini ta'minlash;
- axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalari ishlab chiqarilishini tashkil etish;
- axborot resurslari, xizmatlari va axborot texnologiyalari bozorini shakllantirishga ko'maklashish;
- dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlantirilishini rag'batlantirish;

PEDAGOGIKA

– tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, investitsiyalarni jalb etish uchun qulay sharoit yaratish;

– kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ilmiy tadqiqotlarni rag'batlantirishdan iborat [6]. Mazkur ustuvor yo'nalishlar asosida bo'lajak o'qituvchi o'zining axborot texnologiyalariga oid bilimlarini o'stirishi va mutaxassislik bo'yicha bilim va ko'nikmalari bilan integratsiya qila olishi kerak bo'ladi. Mazkur integratsion vazifani uddalay olgan pedagog o'zining pedagogik faoliyatida yuqori natijalarni ko'rsata oladi. Ta'limda innovatsion metodik faoliyatni rivojlantirish muammosi o'z ichiga ko'p mustaqil masalalarni oladi va bir qator konseptual qoidalarni belgilab beradi. Bular pedagogning innovatsion metodik tayyorgarligining konkret texnologik masalalarini ishlab chiqishni taqozo qiladi.

Bular quyidagilardan iboratdir:

- integratsion va diiferensial ta'lim texnologiyalarini yaratish;
- yangicha ta'limiy jarayonlar haqida tasavvurlar tizimini shakllantirish;
- ta'limning integratsion komponentlari aloqadorligini taminlovchi pedagogik vositalar;
- oliy ta'lim muasasasida innovatsion muhitni yaratish;
- yangicha metodik faoliyatni amalga oshirishda individual xususiyatlarni aniqlashga ta'sir ko'rsatuvchi texnologik va metodik omillar. Ko'rsatib o'tilgan konseptual qoidalar innovatsion metodik faoliyatni rivojlantirish jarayoni ta'lim beruvchi bilan ta'lim subyekti o'rtasida dialektik aloqadorlik bo'lishini taqozo qiladi. Innovatsion ta'limiy metodik faoliyat integral tushuncha bo'lib, uning tarkibiy qismlari madaniy bilimdonlik, professional madaniyat, ijodkorlik madaniyati, intellektual mulk huquqi madaniyati, yangilikni idrok etish madaniyati, boshqarish madaniyati, jismoniy madaniyat kabi tuzilmalardan tashkil topadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, mamlakatimizda bugungi pedagogning kasbiy faoliyatida uning pedagogik faoliyatini axborot texnologiyalari bilan integratsiyalashi zaruriy talab hisoblanadi. Chunki bugungi ta'limni axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilish imkonsiz ekan, unda o'qituvchining ularni chuqur bilishlari ham muhim hayotiy talabga aylanadi. Biroq ularni integratsiyalash qanday va qay shaklda, nimalarni hisobga olgan holda bo'lishi kerakligini asoslash, ilmiy tadqiq etish va muhim ilmiy xulosalarni ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolaveradi. Bo'lajak o'qituvchilarni integrallashgan metodik faoliyatga tayyorlashda ularning umummadaniy salohiyati, mutaxassislik bilimlari hamda shaxsiy fazilatlarini shakllanishida uyg'unlikka erishish taqozo qilinadi. Shu bois o'quv rejalarida ko'zda tutilgan barcha bilimlarga oid fanlarning integratsiyalashuv zarurati yuzaga keladi. Demak, integrallashgan metodik faoliyatni o'qitishda fanlararo aloqalarni mustahkamlashga asoslanadi. Talabalarning fanlarni o'zlashtirishida mustaqil fikrlashi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida yangi pedagogik texnologiyalar, o'qitishning interfaol usullaridan foydalanishning ahamiyati kattadir. Binobarin, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim hamkorlik pedagogikasi, kichik guruhlarda ishlash usullari ta'sirida yaxshi samara berishi mumkin. Ta'lim texnologiyalari samaradorligini yanada oshirishda zamonaviy axborot kommunikatsiyalarini keng joriy etish yaxshi natija beradi.

Zamonaviy ta'limda pedagogik imkoniyatlar va axborot texnologiyalari integratsiyasini ta'minlash bo'yicha quyidagi takliflarni berish mumkin bo'ladi:

- integratsion va diiferensial ta'lim texnologiyalarini yaratish;
- yangicha ta'limiy jarayonlar haqida tasavvurlar tizimini shakllantirish;
- ta'limning integratsion komponentlari aloqadorligini taminlovchi pedagogik vositalar;
- oliy ta'lim muasasasida innovatsion muhitni yaratish;
- yangicha metodik faoliyatni amalga oshirishda individual xususiyatlarni aniqlashga ta'sir ko'rsatuvchi texnologik va metodik omillar. Ko'rsatib o'tilgan konseptual qoidalar innovatsion metodik faoliyatni rivojlantirish jarayoni ta'lim beruvchi bilan ta'lim subyekti o'rtasida dialektik aloqadorlik bo'lishini taqozo qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ибрагимова Ш.О. Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларида методик компетентликни ривожлантиришга инновацион ёндашув. "Таълим ва инновацион тадқиқотлар" журнали 2021 йил №3. –Б. 178.
2. Леонтович А.В. Учебно-исследовательская деятельность школьников как модель педагогической технологии// А.В. Леонтович// Ж. Народное образование. №10. 1999. -С.52-58.
3. Тиллашайхова М.А. Таълим тизимида ахборот технологияларини қўллашнинг илмий-педагогик масалалари. "Science and Education" Scientific Journal. 2020. № 2. –Б.586.

4. Kayumova N. A. Pedagogical Practice as Important Process of Forming Students' Professional Competence. // Eastern European Scientific Journal. Germaniya. 2017. № 6. -P. 21-26. www.auris-verlag.de
5. Каюмова Н. Педагогик ва ахборот технологиялари интеграциясида информатика ўқитувчисини тайёрлашнинг методик тизимини ишлаб чиқиш. Замонавий таълим журнали. 2018. №4. –Б. 35-39.
6. Ўзбекистон Республикасининг “Ахборот эркинлиги принциплари ва кафолатлари тўғрисида”ги Қонуни. // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2003 й., 1-сон, 2-модда; 2015 й., 52-сон, 645-модда.
7. Fakhriddin Urinboevich Toshboltaev. (2021). Improving the methodological system of training teachers on the basis of integration of pedagogical and information technologies. Current research journal of pedagogics 2(6): 96-100, June 2021.
8. Fakhriddin Urinboevich Toshboltaev. (2021). The necessity to ensure integration of pedagogical and information technologies in the preparation of future teachers. European Journal of Research Development and Sustainability (EJRDS). Vol. 2 No. 6, June 2021 103-106.
9. Тошболтаев Фахриддин Ўринбоевич. (2022) Бўлажак ўқитувчиларда методик тайёргарликни ривожлантиришнинг ижтимоий-педагогик зарурати. Science and innovation international scientific journal 539-546.
10. Тошболтаев Фахриддин Ўринбоевич (2022) Бўлажак ўқитувчиларни методик тайёргарлигини-ривожлантириш ижтимоий-педагогик зарурати. KASB-HUNAR TA'LIMI Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma'rifiy jurnal 2022-yil, 3-son 118-121.
11. Тошболтаев Фахриддин Ўринбоевич (2022) Олий педагогик таълимда педагогик ва ахборот технологиялари интеграциясини таъминлаш мазмуни. Ta'lim, fan va innovatsiya 6-son, 2022-yil 41-44.
12. Тошболтаев Фахриддин Ўринбоевич (2022) Бўлажак ўқитувчиларни методик тайёрлаш тизимини такомиллаштиришнинг хусусиятлари. Муаллим сөјм узликсиз Билимлендири № 6/2 - 2022 жыл 75-78.
13. Tashboltaev Fahriddin (2022) Content of ensuring the integration of pedagogical and information technologies in higher pedagogical education. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching 193-196.
14. Fahriddin Orinboevich Tashboltaev (2022) Features of improving the methodical training system of future teachers. Journal of Pedagogical Inventions and Practices 28-12-2022 113-115.
15. Ismoilova Dilrabo Sidikjonovna. Toshboltayev Faxriddin O'rinboyevich (2022) Axborot Texnologiyalarini O'qitish Tizimiga Integratsiyalash. Impact Factor: 9.2 ISSN-L: 2544-980X Vol. 29 (2022): Miasto Przyszłości 283-285